

AMIR TEMURNING HINDISTONGA YURISHLARI

Nabijanov Umidjon Abdug’ani o’g’li

University of business and science

Tarix yo’nalishi talabasi

umidjonkak@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sohibqiron Amir Temurning Hindiston o’lkasi bilan bo’lgan harbiy harakatlar, urushning kelib chiqishi, urushda qo’shin foydalangan harbiy taktika va qurollar va urushning natijalari haqida ma’lumot beriladi.

Kalit so’zlar: Amir Temurning Hindistonga yurishi, Eryob qal’asi, arbalet, Jamna daryosi, Jahonnamoy qal’asi, Panipat yaqinidagi jang, Sulton Mahmud, jangovor fillar

O’zbekiston mustaqilligini har tomonlama mustahkamlash uning umumbashariyat tan olgan ma’naviyatini tiklash va yangi davr talablari asosida yuksak darajaga ko’tarishni talab qiladi. Aynan shu masala yuzasidan 1998-yil O’zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov tarixchi olimlar bilan uchrashuvda tariximizni xaqqoniy ravishda yozish masalasini qo’yadi. I.Karimov Amir Temur haykalining ochilishiga bag’ishlangan tantanali yig’ilishda shunday deydi: “Biz yashab turgan shu muqaddas zaminda buyuk bir davlatga asos solgan, olamni tebratgan, nomi yetti iqlimda mashhur bo’lgan ulug’ bobokalonimiz Amir Temur yoshligidan boshlab o’z oldiga ona yurtini mo’g’ul bosqinchilaridan ozod qilish maqsadini qo’ydi, yer yuzida buyuk saltanat sohibi sifatida el va elatlarning boshini qovushtirdi, mamlakat qudratini har sohada yuksaklikka ko’tarib, dunyoga mashhur qildi”¹.

Sohibqiron Amir Temur bobomizning yurishlari ko’plab tarixchilar tomonidan bo’limlarga bo’lib o’rganilgan. Masalan, uch yillik urish, besh yillik urish va yetti yillik urishlarga bo’lib o’rganishgan. Bu bosqichlarning hammasi ma’lum bir maqsadda amalga oshirilgan. Har bir bosqichda amalga oshirilgan

¹ I.Karimov. Sohibqiron Amir Temur haykalining ochilishiga bag’ishlangan tantanada 1993 yilning 31-avgustida so’zlagan nutqi. “O’zbekiston ovozi”. 1993 yil, 1 sentabr



taktikalar Sohibqiron tomonidan mukammal o'ylab chiqilgan. Aynan Hindiston tomon urushlarida ham Amir Temur yurish oldidan qo'shin joylashuvi, qurol-yarog'larni hisobga olgan holda alohida yondashgan. Amir Temurning Hindistonga yurishi Dashti Qipchoq yurishidan qaytib kelgach, Xitoy yurishiga tayyorgarlik ko'rish uchun 1397-yil nabirasi Muhammad Sultonni 30 ming kishilik qo'shin bilan Mo'g'uliston chegaralariga yuborishi va “Nihoyat Amir Temur 1398-yil mart oyida kofirlar bilan jihod qilishini e'lon qilib, harbiy safarga chiqdi. Old qoshin qomondoni sifatida yuborgan nabirasi Pir Muhammad may oyida Multanga kirdi. U oktyabr oyida Hind daryosini kesib o'tdi. Yo'lida Kobul viloyatini qo'lga kiritgach, Panjob va Sind daryolaridan o'tib, Hindistonning mashhur Batnir qal'asini atroflarini zabt etadi”².

Amir Temur Hindistonga yurishini mart oyida boshlaydi. Ba'zi tarixchilarning fikricha Amir Temurning Hindistonga yurishidan ko'zlangan asosiy maqsadi Buyuk Ipak yo'lini egallash va uning to'la xavfsizligini ta'minlash, Sharq G'arbni o'zaro iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish uchun sharoit yaratishga aloqasi bo'lmagan, faqat bosqinchilik va o'ljani qo'lga kiritishga qaratilgan harbiy yurish sifatida baho berishadi. Lekin bu fikrlarga qo'shilib bo'lmaydi. Chunki, Amir Temurning Hindistonga bo'lgan urushida ko'zlangan asosiy maqsad karvon yo'llari xavfsizligini ta'minlash, bu yo'ldagi ko'plab qabilalar savdoga yomon ta'sir qilishgan. Ushbu qabilalarga misol qilib afg'on qabilalarini keltirsa bo'ladi. Ularning doimiy beboshligi savdo rivojiga katta ta'sir o'tkazgan. Ushbu yurish davomida Sohibqiron Amir Temur asosan afg'on qabilalari bilan bo'lgan urushlar bilan band bo'lganligi, u yerda buzib tashlangan qal'alar va mudofaa devorlarini tiklashga katta e'tibor bergan. Vayronaga aylangan Afg'onistondagi Eyrob qal'asini va Qorabog'dagi Baylokon shahrini qaytadan bunyod ettirgan. Bu shaharlar me'morchilik va san'at uchun qurilmagan. Bu shaharlarni bunyod qilish va qayta tiklashdan asosiy maqsad–iqtisodiy va harbiy maqsadlar ko'zlangan. Bu shaharlar iqtisodiy va harbiy-strategik jihatdan muhim joylarda joylashgan. Misol qilib keltiradigan bo'lsam, Eryob qal'asi Hindistonga boradigan savdo yo'li xavfsizligini ta'minlashda va shu atrofdagi hududlarni va aholini to'belikda ushlab turishda muhim o'ringa ega bo'lgan.

² Bebitov, M., Abdullayeva, M. Amir Temurning Hindistonga yurishi. “Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences”. 2023. –B. 679.



Amir Temur qo'shinlari Termiz orqali Samarqand tomonga harakatlana boshlaydi. Bog'lon viloyatidagi Hindikush tog'laridan o'tgan Amir Temur qo'shini eski Kofiriston (hozirgi Nuriston) aholisi bilan bir necha oy jang qiladi. 1398-yil Amir Temur Andarob orqali Kobulga keladi va shu yerda boshqa davlatlarning elchilarini qabul qiladi. Afg'on qabilalari bo'ysindirilgan. Dastlab Amir Temur qo'shini kelayotgani haqidagi habarni eshitgan Dibalpur shahri aholisi cho'lda joylashgan juda kuchli himoyaga ega bo'lgan Batnir qal'asiga yashirinib olgan. Amir Temur 21-noyabrda qo'shinning harbiy qismiga Dehli tomon yurishni buyurib, o'zi esa 10 000 kishilik qo'shin bilan ushbu qal'ani bosishga harakat qilgan. 30-noyabr kuni qal'ani egallab, qo'lga kiritilgan o'ljalarni olib, Sarasti(Sarrox) va Fatxobod shaharlariga hujum qilgan. 8-dekabrda Somina (Somona) shahri yaqinida Dibalpur shahri yaqinida ajraljan qo'shin bilan qo'shilishgan. Amir Temur va uning qo'shini oziq-ovqat aravalarini kutib bir necha kunga to'xtagan. Dehlidan 7 chaqirim shimoli-g'arbda joylashgan Loni qal'asini egallab, uni o'zlarining qarorgohiga aylantirdilar (1398 yil 10 dekabr). 1398-yil avgust oyida Hindiston yurishi chog'ida uning qo'shini Andiravga kelganida, butparastlar va sehir qiluvchilarning zulmidan va ta'qibidan shikoyat qilgan odamlar Amir Temur huzuriga kelib: “Biz musulmonmiz, bu yerdagi kofirlar, bizdan o'lpon va soliq olishadi bermasak, erkaklarimizni o'ldiradilar, ayollarimiz va bolalarimizni asirga oladilar³”.

Somina shahridan Amir Temurning Dehliga yurishdagi qo'shinlari uchta guruh bo'lib harakat qilgan: markaz va aravalar to'g'ri yo'ldan, o'ng va so'l qanotlar yon tomondagi yo'llardan borishgan. O'rtadagi guruh Asandiy va To'g'loqnur (Tug'lug'pur) harakat qilib, 21-dekabrda Panipatga yetib keladi. 24-dekabrda esa o'ng qanot Konigundan, Dehlidan 20 farsang uzoqlikda, Jamna daryosi bo'yida joylashgan Jahonnamoy qal'asini egallash uchun yuborilgan. O'ng qanot qo'shinlari qal'ani egallaganidan so'ng yana asosiy kuchlar bilan birlashgan. Amir Temur qo'shini 26-dekabr kuni Jamna daryosini kechib o'tib, Luni shahrini bosib oladi. Luni bosib olingach, Amir Temur Jahonnamoy qal'asiga qaytib kelib, Dehli tomon yurish masalasi bo'yicha kengash chaqiradi. Majlis natijasida Dehli shahrini qamal qilish kerak degan fikrga kelgan. Qamal qilish qarori haqida tarixchi M.Ivanin “Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur” asarida shunday yozgan: “Bu niyatni

³ Yuksel Musa Shomil. “Temuriylar davrida din-davlat munosabatlari”. “Turk tarix jamiyati”. –Anqara. 2009. –B. 63.



amalga oshirish uchun mo'g'ullar odatiga ko'ra, Dehli atrofini talon-taroj qilib oziq-ovqat to'plash uchun mo'ljallangan bo'linmalar yuborildi"⁴.

Amir Temur qo'shinlari 1399-yil 1-yanvarda Jamna daryosini kechib o'tib, usha yerga joylashadi. Amir Temur o'z qo'shinlari haqida “Temur tuzuklarida” shunday deydi: “Hindiston yurishiga jamlangan qo'shinlarim umumiy soni to'qson ikki ming otliqqa yetgan edi. Bu esa Allohning yerdagi elchisi Muhammad, sallollohu alayhi vasallam, ismi shariflari soniga to'g'ri kelganligi uchun, bu hayrli va muborak follari sirasiga kiritdim”⁵. Qo'shin Dehli atrofida qarorgoh qurib, qo'qisdan bo'ladigan hujumlarni oldini olish uchun xavfsizlik choralari ko'rishni boshlagan. Ular xandaqlar qazishgan, qoziqlardan to'siq yasab, qalqonlar joylashtirib, uning ortiga o'z chodirini qurgan.

Tarixchi M.Ivanin o'zining “Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur” asarida qo'shin haqida shunday fikr bildirgan: “Ertasiga Sulton Mahmud jang qilish maqsadida Dehlidan chiqdi. U 10 020 yaxshi qurollangan otliq askar, 40 ming piyoda jangchi va ko'plab fillarga ega edi. Fillar ustiga o'q, nayza va qilich zarbidan himoya qiluvchi yopqich yopib qo'yilgan, qoziq tishlari ichiga zahar surtilgan katta pichoqlar bog'lab qo'yilgan, ustilariga arbalet(qo'ndog'i va mo'ljallagichi bo'lgan kamonga o'xshash qurol) bilan qurollangan o'qchilar joylashgan minora singari qurilma o'rnatilgan edi. Filliar yonida yonida cho'g' to'ldirilgan xumcha, yonayotgan mum yoki neft otuvchi naftandozlar, yerga tushib ko'plab marotaba zarb bera oladigan temir poynakli raketa uloqtiruvchilar borar edilar”⁶. Tarixchi Mansurjon Mahmudovning “Harbiy san'at tarixi” asarida shunday yozadi: “Qo'shin safi oldida harakatlanuvchi fillarning hartumlari bir-biriga bog'langan, fillar ustiga kajavalar o'rnatilgan, ularda bir necha o'qchilar joylashtirilgan. Fillar qatori yonidan to'p otuvchilar-ra'dandozlar o'rin olgan”⁷. Amir Temur qo'shinlari fillarga qarshi nayza bilan jang qilishgan. Yaralangan fillar orqaga qaytib, qo'shinning asosini tashkil qilgan fillar hind qo'shinlariga zarar yetkazgan. Urush natijasini sezgan Sulton Mahmud o'zining yaqin lashkarlari bilan jangdan qochib ketgan. Jangdan so'ng Amir Temur qo'shini Dehliga yetib keladi, ungacha esa Sulton Mahmud Dehli shahrining qarama-qarshi darvozasidan qochib

⁴ Ivanin M. Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur. Akmaljon Mahkamov tarjimasi. “Fan” –T., 1994. –B. 182.

⁵ Temur tuzuklari. “G'ofur G'ulom”. –Toshkent. 1991. –B. 47.

⁶ Ivanin M. Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur. –B. 183.

⁷ Mahmudov M. Harbiy san'at tarixi. “Iste'dod ziyo press” –Namangan. 2023. –B.134.



ketgan. 1399-yil 4-yanvar kuni Dehli aholisi jangsiz taslim bo'ladi va shahar buzurlari, sayyidlari, qozilari, a'yonlari Amir Temur huzuriga kelib, Amir Temurdan shahar aholisi uchun omonlik tilaganlar. Amir Temur 1399-yil Shimoliy Hindistonni zabt etib, o'z saltanati doirasiga qo'shib olgan. Ushbu hududdagi Multon, Dipolpur, Lohur viloyatlariga noib sifatida mahalliy kuchlardan bo'lgan Xizrxonni tayinlaydi. Amir Temur 1399-yilning bahorida Hindiston yurishidan qaytgan. Amir Temurning Hindistonga qarshi urushi natijasida Hindistondagi mahalliy sulolalarning kuchi pasaygan va ularning ta'siri sezilarli darajada kamaygan. Bu esa Amir Temur uchun yangi siyosiy imkoniyatlar yaratgan. Urush natijasida ko'plab boylik, oltin va kumushlar davlat xazinasiga kelib tushgan. Umuman olganda Amir Temurning Hindistonga qilgan yurishi uning harbiy qudratini namoyon etdi va ushbu hududdagi siyosiy vaziyatni o'zgartirishga yordam bergan. Ushbu yurish natijasida Hindistonga boradigan savdo yo'llarining xavfsizligi to'la ta'minlangan, ushbu yo'llarning xavfsizlikning ta'minlash uchun shahar va qal'alar qurilgan. Dehli sultonligi ham Amir Temur davlati tarkibiga qo'shib olingan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Amir Temur qayerga yurish qilgan bo'lsa ma'lum bir maqsadda amalga oshirgan. Masalan Amir Temurning Hindistonga yurishida ko'zlangan asosiy maqsad unga qarshi tizilayotgan Boyazid hamda Misr va Bog'dod sultonlari kuchli ittifoqiga vahima solish bo'lgan. Chunki Osiyo hududida porloq quyoshdek chiqayotgan Amir Temur saltanatiga qarshi chiqadigan bitta davlat bu - Usmoniylar imperiyasi bo'lgan desak to'g'ri bo'ladi. Urushdan olingan foydalarga keladigan bo'lsak, Hindistonni kim bosim olsa yaxshigina boylik ortirgan. Bunga misol qilib G'aznaviylar davlatining podshohi Mahmud G'aznaviyni keltirsak bo'ladi. Amir Temur ham Hindiston yurishi natijasida bosib olgan hududlaridan yaxshigina boylik ortirgan, qo'shinlar sonini ko'paytirgan, qo'shin tarkibiga fillardan ham qo'shgan. Umuman olganda Hindiston yurishini Amir Temurning eng oqilona yurishlaridan biri deb keltirsak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Sohibqiron Amir Temur haykalining ochilishiga bag'ishlangan tantanada 1993-yilning 31-avgustida so'zlagan nutqi. “O'zbekiston ovozi”. 1993 yil.1-sentabr.



2. Ivanin M. Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur. Akmaljon Mahkamov tarjiması. “Fan” – Toshkent. 1994. –B. 225.
3. Temur tuzuklari. “G’ofur G’ulom” -Toshkent.1991. –B. 107.
4. Mahmudov M. Harbiy san’at tarixi. “Iste’dod ziyo press” - Namangan.2023. –B. 134.
5. Bebitov. M, Abdullayeva. M. Amir Temurning Hindistonga yurishi. “Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences”. 2023. –B. 679.
6. Yuksel Musa Shomil, “Temuriylar davrida din-davlat munosabatlari”. “Turk tarix jamiyati”. –Anqara. 2009. –B. 63.



Research Science and
Innovation House